

## **INGLIZ TILI VA O'ZBEK TILLARIDA SO'Z BIRIKMALARINING HOSIL BO'LISHIDAGI O'XSHASH VA FARQLI JIHATLAR**

Yarqulova D. M.

Samarkand State Institute of Foreign Languages,  
Teacher of the Department of Innovative Educational Technologies and Pedagogy  
[dilnozaarkulova597@gmail.com](mailto:dilnozaarkulova597@gmail.com)

### **ABSTRACT**

This article is devoted to the study of syntactic relations of words in Uzbek and English languages. It contributes to acquire some information about the concepts of part of speech in language, the syntactical-semantic functions and features of speech units, methods and their specificity, the relations of language and speech, and these relations are explicated samples.

**Key words:** syntactic relations, linguistic unit, associative relationship, principal-subordinate relations, components of units

### **ANNOTATSIYA**

Mazkur tezis ingliz va o'zbek tillarida so'z birikmalarining bog'lanish usullarini, ularning til sathidan nutq sathiga ko'chgan jarayonida sodir bo'ladigan o'zgarishlar haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, hosil bo'ladigan so'z birikmalarining o'xshash va farqli jihatlarini ikki til miqyosida turli xil misollar yordamida yoritib beradi.

**Kalit so'zlar:** so'z birimalari, sintaktik munosabat, hokim-tobe munosabat, birikma komponentlari

Gapdagi sintaktik munosabatlarning turi so'z birikmalarining tiplariga nisbatan ancha keng. Chunki so'z birikmasi sintaksisiga ega va kesim o'rtaсидаги hamda teng birikmalardagi munosabatlar ko'rmaydi. Shunga ko'ra, sintaktik derivatsiyaning mohiyatiga to'la etish uchun ikkita til kesimida so'zlararo sintaktk munosabatlarning turlarini tahlil etib chiqishimiz kerak bo'ladi. Binobarin so'z birikmasiga faqat tobelanuvchi bog'lanish orqali atributiv-aniqlovchilik obektiv hamda hol munosabatlari ifodalanadi. So'z birikmasi yoki gap tarkibidagi komponentlar o'zaro ma'lum grammatik vositalar yordamida munosabatga kirishadi.

Quyida so'zlararo sintaktik munosabat turlariga misollar keltiramiz.

Masalan, dadasini ko'rmoq birikmasidagi so'zlar sintaktik, dadasi bilan kelmoq so'zlarida analitik, yaxshi havo birikmasidagi so'zlar pozitsion usullar yordamida o'zaro aloqaga kirishgan.

Barchaga ma'lumki, so'z birikmasi grammatikaning sintaksis bo'limida o'rganiladi. Sintaksis grek tilidan olingan bo'lib, "syntasis" ya'ni tuzish demakdir. Sintaksisning o'rganish obyekti so'z birikmasi va gap sanaladi. Sintaksis so'z birikmalari va gaplarning hosil bo'lish yo'llari, ularning turlari, tiplarini o'rganadi.

So'z birikmalari so'zlarning ma'lum mantiqiy va grammatikqoidalari asosida birikishidan hosil bo'ladigan sintaktik birliklardir. Bundan ma'lum bo'ladiki so'zlarning munosanbatga kirishishi uchun ichki ma'no tashqi grammatik moslik va ularning uyg'unligi talab qilinadi. Masalan: qorning sovug'i, ko'k o't kabilar.

Ingliz tilida ham so'z birikmalarini hosil qilish uchun ushbu konstruksiya munosibdir. Misol uchun, oak tree, pine tree kabilarni keltiurishimiz mumkin. So'z birikmasini hosil qilish uchun kamida mustaqil ma'noli so'z bo'lishi, shu so'zlar semantik grammatik jihatdanerkin munosabatga kirisha olishi hosil bo'lgan qo'shilma ochiq konstruksiyani tashkil etishi nominativ funksiya ifodalashi kerak. Demak, ikki va undan ortiq so'zlarning grammatik-semantik munosabatidan tashkil topib bir murakkab tushunchani ya'ni predmet harakat, holat, belgi tushunchasini anglatadigan nominativ harakterdagi ochiq konstruksiyalar so'z birikmalari deyiladi.

So'z birikmasining nominativ harakterdagi ochiq konstruksiyadaniborat bo'lishi uni gapdan farqlashda ahamiyatga egadir. Chunki gap ham mustaqil so'zlarning grammatik-semantik munosabatidan vujudga keladi. Lekin gap predikativ qo'shilmadan iborat bo'lib kommunikativ funksiyani bajaradi. So'z so'z birikmasi tarkibida so'z birikmasi esa gap tarkibida oldingi ma'no va formulani saqlab qolmasligi mumkin. Chunki so'z birikmasi so'zni, gap esa so'z birikmasini tayyor holda gapdan tashqaridagi dastlabki holatida birlashtirmaydi, balki o'zining sintaktik qurilishiga bo'ysunadi.

Gap so'z birikmalariga ajratilganida yangi birikmalar hosil bo'ladiki, bu birikmalar tarkibidagi komponentlar forma va ma'no tomondan endi gap sintaksisi talabiga emas so'z birikmasi talabiga ko'ra tuziladi. Chunki gap shunchaki so'z birikmalari yig'indisi emas.

So'z birikmasi gap ichida o'rganilayotgan gapda ham gap sintaksisi nazarda tutilmaydi. So'zlar so'z birikmasidan alohida o'rganilgani kabi so'z birikmalari ham gapdan tashqarida alohida o'rganiladi. So'z birikmasi kompleksidagi bir so'z hokim bo'ladi boshqasi unga tobe bo'ladi. Bu hokim tobeklik holati usha qo'shilishning



harakteridan komponentlarning grammatic xususiyatidan formal ko'rsatkichlardan va ma'nodan bilinib turadi. Masalan, oppoq qor- bunda qor hokim, ertsalab bajarmoq, bunda bajarmoq-hokim, chunki bajarmoq fe'liga qo'shimcha ma'no ya'ni payt ma'nosи yuklanib kelmoqda. Bu xususiyat ingliz tiliga ham xos. Masalan, sleep early, bunda sleep- hokim (head), early-tobe (subordinate) so'zdir.

O'zbek tilida birikmadagi komponentlarning odatdagi neytral tartibi quyidagi qoidaga asoslanadi. Tobe so'z hokim so'zdan oldin keladi. Tobe so'zning formasi hokim so'zga uning talabiga qarab o'zgaradi. Masalan, maktabga bormoq, maktabdan kelmoq. Demak, so'zning har xil morfemalarga kirishini uning boshqa so'zlar bilan bo'lgan munosabatiga-bu munosabatning leksik-grammatik xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Lekin mustaqil so'zlarning har qanday bog'lanishi so'z birikmalarini hosil qilavermaydi. Masalan, ega bilan kesim o'rtasidagi bog'lanish ham mustaqil so'zlar birikuvidan iborat. So'z birikmalari komponentlari o'rtasidagi bog'lanish ergash birikishga asoslanadi, ya'ni komponentlarning biri ikkinchisiga tobelanish yo'li bilan aloqaga kirishishdir, undagi mustaqil va tobe a'zolarning harakteri hokim so'zining xususiyatiga bog'liq bo'ladi. Hokim so'zsiz so'z birikmasi bo'lishi ham mumkin emas. So'z birikmasi bitta mustaqil so'z atrofiga birlashadi. So'zlardan biri hokim qolgani unga tobe bo'ladi. So'z birikmalari hokim so'zining qaysi so'z turkumiga mansubligiga qarab ot va fe'l birikmalariga bo'linadi. So'z birikmasining ma'nosи uni tashkil etgan komponentlarning leksik ma'nolariga bog'liqdir.

Bundan ma'lum bo'ladiki so'zlar o'rtasidagi sintaktik munosabatlar so'z formulalari yordamida yordamchi so'zlar, so'z tartibi intonatsiya kabi vositalar yordamida ifodalanadi.

Sintaktik aloqani ifodalashda asosan so'z o'zgartiruvchi affikslar ishtirok etadi. Shuning uchun ham ular ba'zan sintaktik formula deb ham yuritiladi.

Masalan: mening vatanim birikmasida so'z o'zgartiruvchilarning ikki turi kelishik va egalik turlari qo'llangan. Ko'rindaniki, sintaktik aloqalarning ifodalanishida formal vositalar sifatida turlovchilar, egalik va kelishik affikslari va tuslovchi affikslar ish ko'radi. Bularning har birining vazifasi ham har xildir.

### **Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati**

1. Axtamova, F., & Yarqulova , D. (2023). EXPLORING THE KEY FEATURES OF FOUR LEARNING STYLES: A GUIDE TO PERSONALIZED EDUCATION. Innovative Development in Educational Activities, 2(21), 27–30.
2. Safaraliyeva, D., & Axtamova, F. (2023). The Peculiarities of Teaching



- Multisensory Style of Learning. Journal of Language Pedagogy and Innovative Applied Linguistics, 1(5), 93-95.
2. Farhodova S. et al. Phraseological Units Reflecting the Traditions and Customs of the English People in Sociolinguistics //Journal of Language Pedagogy and Innovative Applied Linguistics. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 70-74. entury Innovations, 26(5), 46–48.
3. Nosirova M. F., Farhodova S. U. Q. The study of sociolinguistics and the implication of social factors //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 5. – C. 2017-2020.
4. Safaraliyeva, D., & Axtamova, F. (2023). The Peculiarities of Teaching Multisensory Style of Learning. Journal of Language Pedagogy and Innovative Applied Linguistics, 1(5), 93-95.
5. Umidovna, Farkhodova Shakhzoda, and Suyunova Aziza Kholmuminovna. "SOCIAL FACTORS AND THEIR FUNCTIONING IN SOCIOLINGUISTICS." ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 21.3 (2023): 68-70.
6. Yarqulova Dilnoza Mehridinovna. (2023). TIL VA NUTQ MUNOSABATLARI, PAYT HOLI PARADIGMATIKASI . Journal of New Cl. Solijonovna U. O. et al. LINGUACULTURAL AND SOCIOLINGUAL FEATURES OF ENGLISH-UZBEK PAINTING TERMS //PEDAGOG. – 2022. – T. 5. – №. 6. – C. 605-611.

